



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 10-avgust, payshanba,

95 (23.816)-son

Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz [@zarnews_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

KUN
HIKMATI

Qadr-qimmatning
ishlagan yilga
emas, jamoaga
ko'rsatgan ibrat va
shogirdlarning sizni
tan olishi bilan
o'chanadi



YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!

SAMARQANDDAN URUMCHIGA AVIAQATNOV YO'LGA QO'YILADI

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov Xitoy Xalq Respublikasining O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Yuy Szyun bilan muzokara o'tkazdi.



Uchrashuvda E.Turdimov Samarqand viloyati va Xitoy provinsiyalari o'tasidagi ikki tomonloma munosabatlar yanada mustahkamlanayotganidan mammunligini bildirdi.

Muloqotda O'zbekiston va Xitoy davlatlarini azali do'stlik va chuqur tarixiy rishtalar bog'lab turganligi alohida ta'kidlandi. Hozirgi vaqtida mamlakatlardan o'tasidagi munosabatlar barqaror rivojlanish sur'atini saqlab kelmoqda. Yuy Szyun janoblari joriy yilda mazkur tashabbusni amalga oshirishni jadallashtirishda viloyat rahbaridan amaliy yordam so'radi.

O'z navbatida Erkinjon Turdimov Xitoyning rivojlangan provinsiyalaridan biri - Xenan bilan yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilayotganini mammuniyat bilan e'tirof etdi. Shuningdek, joriy yilning sentabr oyida Xitoy provinsiyalari ishbilarmon doiralar bilan birgalikda rasmiy delegatsiya a'zolarining Samarqandga tashrif buyurishi ma'lum qilindi.

O'z muxbirimiz.

O'zbekiston faxriyalarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasi Vasiylik kengashining shu yil 27-maydagi qarori bilan mamlakatimizning iqtisodiyot, ishlab chiqarish, ilm-fan, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, yurisprudensiya va boshqa sohalarda ko'p yillar halol va samarali mehnat qilgan nafaqa yoshidagi yurtoshlarimiz, shuningdek, hayotini oilalar mustahkamligini saqlash va farzand ta'lim-tarbiyasiaga bag'ishlagan, jamiyatimizda hurmat qozongan faxriylarning biri guruhi "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Jumladan, viloyatimizdan 81 nafar nuroniy I, II, III darajali "Mehnat faxriysi" nishoniga loyiq ko'rildi.

Kecha Samarqand shahridagi Yoshlar markazida viloyat faollari ishtirokida nishonlarni tantanali topshirish marosimi o'tkazildi.

Viloyat hokimi E.Turdimov muhofotlangan faxriylarini tabriklab, yurtimizda keksa avlod vakillarini har tomonloma qo'llab-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy faoliygini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror asosida faxriy-

MEHNAT FAXRIYLARI TAQDIRLANDI



ijtimoiy muhofaza qilish, ularni har tomonloma qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarga e'tibor qaratdi.

– Prezidentimizning yurtimizda yashovchi nuroniylargo bo'lgan alohida e'tibor va g'amxo'rliklari tufayli har yili muhim qaror va farmonlar qabul qilinmoqda, – dedi E.Turdimov. – Jumladan, joriy yil 11-martda qabul qilingan "Keksa avlod vakillarini har tomonloma qo'llab-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy faoliygini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror asosida faxriy-

larga bir qator imtiyoz va yengilliklar berildi. Sizlarning boy hayotiy tajribangizdan foydalanish, ijtimoiy faolligingizni oshirish maqsadida "Bir nuroniy o'n yoshta mas'ul" tamoyiliga muvofigi, yoshlar mahalladagi hayotiy tajribaga ega bo'lgan, zamonaviy fikrلaydig'an faol nuroniylargo birkirtirildi. Oilalar da ma'nnaviy muhitni sog'olmashtirish, notinch oilalar bilan ishlashtirish, ham nuroniylarimizning o'rni oshib borayotgani quvonlar, albatta. Xalqimizda "Qarisi bor uyning parisi bor", degan gap bekor aytilmagan. Chindan ham qaysiki

xonadonda keksa otaxon va onaxonlarimiz bo'lsa, bu uyning fayzi, barakasi boshqacha bo'ladi, bolalar bobo va momolari pand-nasihatini eshitib, ularning duosini olib, barkamol insonlar bo'lib o'sadi.

Marosimda faxriyalar so'zga chiqib, ko'rsatilayotgan hurmat, e'tibor uchun minnatdorlik bildirdi.

– Bir umr davlat idoralarida ishladim, iqtisod sohasida mehnat qildim, – deydi I darajali "Mehnat faxriysi" ko'krak nishon sohibi, qo'shrabotlik O'rozqul Egamov. – Kasbim tufayli obro'-e'tibor topdim, elning hurmatini qozondim. Yuzlab shogirdlar tayyorladim.

Yaratganga shukr, muborak Haj amallarini bajarib kelish nasib etdi. Umuman, yoshlikda mehnat qilib, keksayganda uning rohatini ko'rish nasib etgan faxriylardan biriman. Bugungi e'tirofda ham boshim ko'kka yetdi. Bugun yurtimizda yashayotgan keksalar ham, yoshlar ham har kunimiz uchun shukrona aytishimiz kerak. Davlatimiz o'z fuqarolari uchun juda katta imkoniyatlar yaratib berdi, har tomonla ma'qillab-quvvatlayapti. Buning qadriga yetish kerak.

Faxriylarning suhbatini bir piyola choy ustida davom etdi.

TAYINLOV

Shu paytgacha Samarqand viloyati prokurori lavozimida ishlagan **Hatamov Jahongir Jo'rayevich** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoniga asosan, **Bosh prokuror o'rinnbosari** lavozimiga tayinlandi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyrug'iiga asosan adliya katta maslahatchisi **Eshnazarov Murodqosim Hamzayevich** Samarqand viloyati prokurori lavozimiga tayinlandi. M.Eshnazarov tayinlovga qadar Bosh prokururatura boshqarma boshligi bo'lib ishlagan.



MUSTAQILLIK



1992-yilda viloyatimiz bo'yicha 190 dan ziyod fermer xo'jaligi tashkil etilib, ularga 1500 hektar yer ajratib berilgan bo'lsa, 2022-yil yakuni bilan viloyatda 48 ta klaster korxonasi tashkil etildi, fermerlar soni 11 ming 313 nafarga yetdi va ular ixtiyoridagi yer 384 ming 907 hektar maydonni tashkil etdi.

UYDA TAYYORLANGANI ZAHARLI EKAN

KO'CHADA SAQLANGANI-CHI, SIFATIGA KAFOLAT BORMI?

O'tgan hafta Urgutdagagi to'ya odamlarining ovqatdan ommaviy zaharlangani haqidagi xabar tarqaldi. Bunga uy sharoitida tayyorlangan mayonez salat sabab bo'lgani qayd etildi.

Umuman, ovqatdan zaharlanish holati ko'pincha uya tayyorlangan salat, konservadan yoki boshqa taomdan kelib chiqqani aytildi. To'g'ri, hamma bekalar ham pazandalik sirlarini yaxshi bilmas yoki ayrim salat yoki taomlarni tayyorlashning me'yollariga, sanitariya-gigiyenaga amal qilmas. Eshitgani yoki ko'rgani asosida tayyorlab ko'rishga urinishi mumkin. Bundan ko'z yumib bo'lmaydi. Lekin masalliqlarning sifati, yaroqlik muddati bilan ko'pchilik ayollar, hatto bozor-o'char qiladigan erkaklar ham qiziqlamsligi, bunga e'tibor qaratmasligi haqiqat.

Ayniqsa, keyingi paytda bir-ikki so'm arzon deb mahsulotni ulgurji bozordan yoki shu turdagidagi savdo do'konlaridan xarid qilishga odatlanayotganimizda sotib olayotgan mahsulotning qanday sharoitda saqlanayotgan, yaroqlik muddatiga e'tibor qaratishni unutib qo'yamiz. Ulgurji savdoga keltirilgan ko'p miqdordagi mahsulotlarni esa maxsus joylarda, ombor yoki muzlatkichda saqlashning imkoniy yo'q. Shuning uchun do'kon oldida yoki ko'cha chetida terib qo'yilgan holda savdoga chiqarilmoqda va xaridor shu yerdan olib ketayapti.

Havo salqin paytlarda-ku bu salbiy holatlarga



olib kelmasligi mumkin (shunda ham mahsulotni ko'chada, yo'lakda terib qo'yish savdo va xizmat ko'rsatish talablariga qanchalik mos keladi?). Ammo yoz paytda, havo harorati anomal ko'tarilib ketayotgan issiq kundarda-chi? Istalgan bozor yoki savdo markaziga borib ko'ring yoki yo'l yoqalaridagi yirik do'konlar atrofiga qarang – barchasida suv va boshqa ichimliklar, moy va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari quyosh nuri tushdashigan joyda, yo'lklarda ochiq holda terib qo'yiladi. Bu mahsulotlar orasida sifati tez buziladigan mayonez va taomlarga qo'shiladigan boshqa qo'shimchalar, tuxum va shirinliklar ham bor. Ayrim savdo do'konlarida esa kolbasa mahsulotlarni ham ochiq holda rasta ustiga terib qo'yib sotishadi.

Eng yomoni, ko'p hollarda kolbasaning qachon ishlab chiqarilgani haqidagi yorliq yoki belgilarni umuman qo'yilmaydi. Ayni paytda esa to'yarda yoki boshqa oilaviy marosimlarda dasturxonga go'sht mahsulotlari tortilayotganda, albatta, kolbasan ham qo'yiladi.

Mutaxassisining aytishicha, belgilangan haroratda saqlanmagan, quyosh nuri ostida qolgan mayonez, kolbasa singari tez buziladigan mahsulotlar ichak



tayoqchalari, stafilokkk, streptakok ko'payishi ga olib kelar ekan. Xuddi shunday – quyosh nuri tushdashigan joyda terib qo'yilgan rangli va rangsiz ichimliklar, suv ham iste'mol qilingandan so'ng organizmda turli nojo'ya holatlarni keltirib chiqarishi kuzatilgan.

Bu talablarni ko'pchiligidir, ayniqsa, shu sohalariga mas'ullar ham yaxshi bilishadi. Ammo bilsak-da, savdo tartib-qoidalariga zid harakat qilayotganlarga e'tiroz bildirmaymiz. Mas'ul idoralar esa tadbirko'faoliyatiga aralasha olmaymiz, deb ochiq-oydin qoidabuzarlik, savdo-sotiq tartiblariga riyo etmaslik holatlariga ham ko'z yumadi. Bundan esa oxir-oqibat iste'molchi aziyat chekadi, ovqatdan zaharlanish, turli yuqumli kasalliklar yuzaga keladi.

Tadbirkor-chi? Nega u o'z manfaati, uch-to'rt so'm pul topish ilinjida hech narsadan tap tortmaydigan bo'lib qoldi. Qonun-qoidani pisand qilmas, halol-haromni, insof-diyonatni ham unutganmi?

Savdoda halollik muhimmasmi, baraka halol-poklikda-ku.

Yana bir masala – to'xona va oshxonalarining sanitariya holati. Yaxshi bilamiz, bugun aksariyat to'xonalarda, hatto restoran va kafelarda mavsumiy ishchilar, ko'proq talabalar mehnat qiladi. Uy bekalari idish-tovoq yuvadi. Aksariyati rasmay qayd etilmaydi ham. Kunlik ishiga yarasha haq oladi. Ularning tibbiy ko'rikdan o'tgani yoki umumiyoq ovqatlanish tizimida ishlash, xizmat ko'rsatish ko'nikmasinga egalig haqidagi gapirish ham ortiqcha. Buniyam yaxshi bilamiz, lekin bizga kim, qanday xizmat qilayotganiga e'tibor qilmaymiz.

Xullas, ovqatdan zaharlanish holatlari, turli yuqumli kasalliklar qayd etilayotgan ekan, buni faqat "uy sharoitida tayyorlangan" degan vaj bilan xaspo'shlashmasdan, ularni yuzaga keltirayotgan sabablar, uning oqibatlarini tahsil qilinishi, shunga qarab, aniq chora-tadbirlar ko'riliishi lozim. Aslida, chora-tadbirlar, tartib-me'yorlar mavjud, allaqachon belgilangan. Gap ularning ijrosini ta'minlash, har bir soha, tizim egalarining o'z vazifalariga vijodon yondashib, mas'uliyatini bajarishda qolgan, nazarimda. G'olib HASANOV.

KAFTARXONA da

QACHON

TARTIB BO'LADI?

Ijtimoiy tarmoqlarda Samarcand shahri Panjakent ko'chasidagi «Kaftarkona» avtoboshbekati qariyb uch oydan buyon temir to'siq bilan yopib qo'yilganligi haqida xabarlar tarqalgandi. Bu holat Samarcand, Toyloq, Urgut tumanlari aholisiga jamaot transporti xizmati ko'rsatishga xalaqit qilyapti. Chunki mazkur bekatda shahar va tumanlararo o'ndan ziyod yo'nalishlarda qatnaydigan 30 ga yaqin avtobus, 250 ga yaqin taksi kuniga 20-25 ming aholiga xizmat ko'rsatib kelgan. Endilikda avtobuslar avtoboshbekat hududiga kirolmayapti. Kamiga ikki oydan ziyod vaqt ichida yondosh ko'chalarda ham asfalt yotqizish ishlari olib borilganligi tufayli Panjakent ko'chasida katta tirbandlik yuzaga kelyapti. Transport ko'pligidan bir necha marta avtohalokat sodir bo'lib, yo'lovchilarining jarohatlanishiga, hatto o'llimiga ham sabab bo'ldi.

Urgut tuman yo'nalishi bo'yab yo'lovchi tashiyimiz, - deydi 205-raqamli avtobus haydovchisi. - Bir soatda Samarcand shahriga kirib kelamiz, yo'lovchi olishimizga esa ikki saat vaqt ketadi. Chunki bizga shahar ichkarisiga kirishga ruxsat yo'q. Yo'lovchini shu avtoboshbekatdan olishimiz kerak. Biroq, bekatni yopib olishgach, katta ko'chada yo'lovchi olishimizga to'g'ri kelyapti. Yo'i tor, mashinalar ko'p. Ko'chaning ikki tomonini yuzlab yengil mashinalar egallab olgan. Haydovchilar joy talashib, kuniga janjal qiladi.

Avtoboshbekat o'rabi olingan tufayli hududda joylashgan bir qator tadbirkorlar o'z faoliyatini to'xtatgan.

- To'siqlarni olib tashlash to'g'risida bir necha bor viloyat va shahar hokimliklariga murojaat qildik, - deydi Kaftarkona mahallasi yashovchi tadbirkor Nodira Qayumova. - Ertaga ochamiz, indinga ochamiz deya va'da berishadi-yu, bajarishmaydi. O'zboshimcha tadbirkorga esa gapimiz o'tmayapti. Oshxonamiz kichik bo'lsa-da, har holda xo'randalalarimiz bor edi. Ko'chadan odamlar o'tmaganligi sababli bankrotga uchradi. Endi o'z faoliyatimizi to'xtatishga majburmiz.

Samarcand shahar hokimligi tomonidan avtoboshbekatga shaharsozlik an'analariga mos kelmaydigan to'siqlar o'rnatgan fuqarolarga nisbatan fuqarolik sudiда ish qo'zg'atilgan edi. Sud to'siqlarni bartaraf qilish to'g'risida qaror qilgan bo'lsa-da, hali bu ish amalga oshirilmayapti.

"Buyuk Ipak yo'li" Samarqand xalqaro turizm markazi hududidagi "Boqiy shahar" majmuasida Hindiston Respublikasi mustaqilligining 75 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbir o'tkazildi.

"Boqiy shahar"da Hindiston bayrami nishonlandi



Hindiston Respublikasi tashqi ishlar vazir o'rgebnisi Sanjay Varma, Hindistonning mamlakatimizdagi elchisi Manish Prabhat va viloyat hokimi o'rgebnisi Rustam Qobilov keyingi yillarda ikki davlat o'tasidagi ta'lif, tibbiyot, iqtisod va boshqa yo'naliishlardagi hamkorlik rivojlanib borayotganini ta'kidadi.



- Azaldan o'zbek va hind xalqi do'stona munosabatda bo'lib kelgan, - deydi Sanjay Varma. - Ayniqsa, keyingi yillarda bu aloqlar yanada mustahkamayapti. Mamlakatimiz mustaqilligining 75 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbir Samarqandning yangi bunyod etilgan majmuasida o'tkazilishi ham davlatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikning samarasidir. Bayramni biz bilan birga nishonlash uchun yuzlab o'zbekistonliklar bu yerda jam bo'lgani meni xursand qildi. Tadbirni tashkil etishda bosh bo'lgan viloyat hokimligiga minnatdorligimni bildiraman.

Bayram tadbirida hind va o'zbek san'atkori tomonidan kuy-qo'shiqlar ijro etildi.

To'Iqin SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

Betobligim sababli notarial idoraga borolmayman.
Notariuslar tomonidan sayyor tartibda notarial harakat amalga oshiriladimi?

E.Egamov,
Urgut tumani

Ha, notarius tomonidan bitim notarial idora binosida yoki murojaat qiluvchilarning talabiga ko'ra sayyor tartibda rasmiylashtirilishi mumkin.

Bitim notarial idora binosidan tashqarida bajarilsa, hujjatning tasdiqlovchi yozuvida bitim rasmiylashtirilgan joyning manzili ko'rsatiladi va bitimni rasmiylashtirish hamda imzolash jarayoni majbuliy audio va videoda qayd etiladi.

Bitimni rasmiylashtirish jarayoni audio va video qayd etishda notarius va notarial harakatni amalga oshirishda ishtirot etuvchi shaxslar tasvirga to'liq tushirilishi shart.

Notarius uyda xizmat ko'rsatishi mumkin



yoxud «E-notarius.uz» axborot portali orqali ro'yxatdan o'tadi.

Notarius tizim orqali kelib tushgan elektron murojaatlarni ko'rib chiqishi va belgilangan muddatda murojaat qilgan shaxslarni qabul qilishi lozim.

Murojaat qiluvchi bitimni rasmiylashtirish uchun notarial idoraga o'zi kelib murojaat qiladi yoki notarius xizmatidan elektron tarzda foydalanan uchun O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini rasmiylashtirilishi uchun zarur

"Besh tashabbus olimpiadasi":

Musobaqalarda o'quvchi va talabalar ham ishtirot etadi



Viloyatda ommaviy sportni rivojlantirish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmuni tashkil etish, "Besh tashabbus olimpiadasi"ning ikkinchi mavsumiga tayyor-garlik ko'rish va uni yuqori savyada o'tkazish borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

Viloyat hokiming o'rgebnisi Rustam Qobilov hamda tegishli boshqarmasi va tashkilotlar rahbarlari, sport ta'lif muassasalarini mas'ullari ishtirotida o'tkazilgan matbuot anjumanida OAV vakillari va blogerlar ana shu savollarga javob oldi.

- O'tgan davr mobaynida 420 dan ortiq mahalliy, respublika va xalqaro sport tadbirlari o'tkazildi, - dedi R.Qobilov. - Musobaqalarda viloyatimiz sportchilari 563 ta oltin, 585 ta kumush, 890 ta bronza, medallarini qo'liga kiritdi. To'rtta xalqaro musobaqa Samarqandda o'tkazildi. 15-17-sentabr kunlari triatlon bo'yicha "Challenge Samarkand" xalqaro musobaqasi va O'zbekiston championatiga yana bir bor mezonlik qilamiz.

"Besh tashabbus olimpiadasi"ning birinchi mavsumida sport, madaniyat, san'at, kitobxonlik, axborot texnologiyalari va kasblar tanlovi bo'yicha 19 yo'naliishda 393 ming 134 nafr samarqandlik yoshlar musobaqalarning mahalla, sektor, tuman (shahar), viloyat hamda respublika bosqichlari bellashib, umumjamoa hisobida birinchi o'rinni egalladi. Mazkur sport musobaqalarining respublika final bosqichida viloyatimiz yoshlari 16 ta oltin, 9 ta kumush, 12 ta bronza medalni qo'liga kiritdi va 782 nafr iqtidorli yoshlar saralanib, sport maktablariga qabul qilindi.

Matbuot anjumanida "Besh tashabbus olimpiadasi"ning ikkinchi mavsumiga ko'rilayotgan tayyor-garlik va o'zgarishlar, sportchilarga yaratilayotgan sharoit haqida ham ma'lumot berildi.

- Olimpiadaning ikkinchi mavsumi sentabr-

noyabr oyalarida o'tkazilishi rejalashtirilgan bo'lib, 10-avgustdan 15-avgustgacha ishtirotchilar "my.sport.uz" yoki "beshtashabbus.uz" platformalari orqali onlayn ro'yxatdan o'tadi, - deydi viloyat yoshlar siyosati va sport boshqarmasi boshlig'i Shuhrat Ro'ziyev. - Hozirda musobaqalar o'tadijan joylarni belgilash, sport inshootlarini tayorlash, hakamlarni biriktrish, boshlarning belgilangan vaqtida nizom asosida o'tkazilishini nazorat qilish hamda g'olib va sovindorlarni taqdirlash choralar ko'rimoqda.

Musobaqaning yangi nizomiga ko'ra, ushu mavsumda maktab o'quvchilari yetti yo'naliishda, professional ta'lif muassasalarini o'quvchilari besh yo'naliishda, oliy ta'lif muassasalarini talabalarini o't yo'naliishda, mahalla yoshlari olti yo'naliishda ko'rik-tanlov va sport musobaqalarida belgilangan yosh toifasida ishtirot etadi.

Tadbir so'ngida ommaviy sport musobaqalari o'tkazish va yoritishda munosib hissa qo'shib kelayotgan jurnalist va blogerlar taqdirlandi.

F.RO'ZIBOYEV.

Vaqtida almashtrimasa, jarima

Pasportning amal qilish muddati tugagan bo'lsa, lekin shaxs doimiy ro'yxatda o'tgan joyida emas boshqa hududda istiqomat qilsa, pasport almashtrish tartibi qanday bo'лади?

O'zbekiston Respublikasi fuqarosining biometrik pasporti to'g'risidagi nizomning 11-bandiga muvofiq, fuqaro pasportining amal qilish muddati tugaganda so'ng yoki familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili va millati o'zgarganda, pasportini 1 (bir) oy muddatda ID-kartaga almashtrishi lozim.

Amal qilish muddati o'tgan biometrik pasportning o'z vaqtida ID-kartaga almashtrmasligi — ya'ni, fuqaroning pasport-siz yoki ID-kartasiz yashashi MJtKning 223-moddasiga binoan 900 ming so'mgacha miqdorida jarima solishga sabab bo'лади.



Biometrik pasportlarni istalgan ichki ishlar organlari yoki ro'yxat bo'yicha tasdiqlangan davlat xizmatlari markazlarida ID-kartaga almashtrish mumkin.

Rustam NORQULOV,
Samarqand shahar Davlat xizmatlari markazi bosh mutaxassis.

bo'igan ma'lumotlarni jo'natgan holda tegishli bitim loyihasining oldindan tayyorlab qo'yilishini so'rab murojaat qilishi mumkin.

Murojaat qiluvchining elektron tarmoq orqali notarius qabuliga yozilish bo'yicha yo'llangan murojaatlari jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini navbatma-navbat qayd qilish elektron ro'yxatiga avtomatik tarzda oday etiladi.

Murojaat qiluvchining elektron tarmoq orqali bitim rasmiylashtirilishi uchun zarur bo'igan ma'lumotlarni oldindan jo'natgan holda tegishli hujjalarning tayyorlab qo'yilishi bo'yicha yo'llangan murojaatlari ularning elektron raqamlari imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Murojaat bo'yicha bitim loyihasi notarius tomonidan belgilangan vaqtida oldindan tayyorlab qo'yiladi.

Savolga Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ulug'bek G'afforov javob berdi.

Mamayusuf SHODMONOV



Butun umrini el xizmatiga bag'ishlagan fidyo inson, mohir rahbar, farmatsevtika sohasi jonkuyari Mamayusuf Shodmonov 83 yoshida vafot etdi.

M. Shodmonov 1940-yilda Bulung'ur tumani Jonxo'r oz qishlog'ida tug'ilgan.

Beg'ubor bolaligi urush va undan keyingi og'ir yillarga to'g'ri keldi. Shu sababli o'sha davr bolalari singari uning ham suyagi mehnatda qotdi, dalaga chiqib, kattalarga yordam berdi, ketmon chopdi, g'alla o'rdi. Lekin o'qishga ishtiyobi, biror kasbning boshini tutib, jamiyatda o'z o'rni ni topishga intilishi uning keyingi hayoti mazmun-mohiyatini belgilab berdi.

M. Shodmonov dorishunoslik sohasida mehnat faoliyatini boshladgi va butun umr shu tizimda samarali ishladi. 1959-yilden 1982-yilga qadar Samarqand viloyati dori-darmon tashkilotiga qarashli dorixonalarda oddiy sotuvchilikdagi rahbarlikkacha bo'igan yo'llini bosib o'tdi. Soha ishini puxta o'rgandi, bilim va tajribasini oshirdi.

Uning o'z ishining yetuk mutaxassisasi bo'lib yetishgan rahbariyati

va jamao e'tiboridan chetda qolmadи. 1982-yilda M. Shodmonovni Samarqand dori-darmon tashkiloti rahbarligiga tayinlashdi. Tashkilot aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilganda ham raislik unga ishonib topshirildi. Shu tarzda Mamayusuf

aka 17 yil mazkur tashkiloti boshqarib, viloyatda dori vositalari ta'minotini yaxshilashga erishdi.

M. Shodmonovning xizmatlari davlatimiz va Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan e'tirof etilib, ko'plab mukofotlar bilan taqdirlandi. O'zbekiston sog'liqni saqlash a'lochisi bo'ldi.

Mamayusuf aka pensiyaga chiqqanidan keyin uning ishini farzandlari, shog'darlari davom etirdi. O'zi esa ularga tajribalarini o'rgatib, yo'l-yo'riq ko'rsatdi. Shu bilan birga, tadbirkorlik faoliyatini yo'iga qo'yib, Samarqand shahri, Bulung'ur va Jomboy tumanlari da bir qator mahallalarni obod qilish, yangi ish o'rnlari yaratishga hissa qo'shdi. Savdo va maishiy xizmat ko'rsatish markazlari tashkil etdi. O'zi tug'ilib o'sgan qishloqda 300 o'rni mifikat qurdi.

M. Shodmonov faol nuroniydaridan buri sifatida yoshlarni tarbiyalash, ehtiyojmand oilalarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga baholi qudrat ko'mak berardi.

Katta va ahil oila sardori, saxovatpesha inson Mamayusuf Shodmonovning yodi qalbimizda mangu qoladi. Marhumming oila a'zolari va yaqinlariga hamdardlik bildiramiz.

Bulung'ur tumanidagi Qo'ng'irot va Jomboy tumanidagi Eski Jomboy mahallalari faollari

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lolar tezkori, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Rakmonov Shirmamatga (2012-yil 13-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilmoxda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Xalimov Furkat Xalimovichga (2021-yil 20-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilmoxda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Shamirzayev Artikga (2021-yil 4-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 35-uy, 3-xona.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Norbekova Sanobar Keldiyarovnaga (2022-yil 2-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Tursunov Toirga (2020-yil 19-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilmoxda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-“A” uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zairovna notarial idorasida marhum Achilov Sultanmuratga (2022-yil 24-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilmoxda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zairovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

BEKOR QILINADI

Past-Darg'om tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi 69-umumiy o'rta ta'lim maktabining (STIR 206890775) dumaloq gerblı muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Bugun ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talab va ishtiyoq yuqori. Maktab o'quvchilari oliy ta'lif muassasasiga o'qishga kirish uchun ingliz tilini o'rganayotgan bo'lsa, bakalavr diplomini olganlar magistraturaga kirish uchun, tashkilot va korxonalarda ishllovchilar karerasini oshirish maqsadida ingliz tilini o'rganmoqda. Hatto chet elda mehnat muhajiri bo'lishni istayotganlar ham biron chet tilini o'rganishga urinmoqda. Xo'sh, ingliz yoki boshqa chet tilini tez va puxta o'rganish uchun nima qilish kerak? Samarcand xalqaro texnologiya universitetining ingliz tili o'qituvchisi, asli amerikalik Joseph Stack bilan suhabatimiz shu haqda bo'ldi.

Ingliz tilini grammatikasiz o'rgansa bo'ladi(mi?)

- Ingliz tilini o'rganish uchun qancha vaqt sarflashtirishga muvofiq?

- Chet tilini o'rganish uchun, albatta, vaqt talab etiladi. Men Afq'onistonda o'n besh yil yashadi, fors va o'zbek tillarini o'rgandi. Bugun fors va o'zbek tillarida bermalol gaplasha olaman. O'sha paytda bu tillarni o'rganish uchun 400 soat fikrash va suhbatlashish kerak, deyishardi. Ammo ingliz tilini o'rganishni biroz mushkul. Ingliz tilini o'rganish uchun ham gapirish, ham o'qish, ham fikrash kerak. Xullas, ingliz tilini o'rganishga ming soat vaqt kerak bo'ladi. Astoyid o'rganaman degan kishi bir yilda ingliz tilini o'rnga oladi.

- Chet tilini o'rganishda yo'l qo'shiladigan xatolar nimalardan iborat?

- Chaqaloq ikki yil davomida tilni eshitib o'rganadi. Siz chet tilini tezroq o'rganishga harakat qilsangiz, xatolaringiz ko'proq bo'ladi. Til shunday narsaki, uni qanchalik ko'p eshit-sangiz, u sizga tabbiydek tuyuladi va oson o'rganasiz. Ba'zi talabalar lug'at yodlasam, tilni tezroq o'rganaman, deb hisoblaydi. Men talabalgara tilni ko'proq eshitishni maslahat bera-man. Chet tilini ko'proq eshitib o'rgangan kishi kamroq xato qiladi.

- Grammatikani o'rganmasdan ingliz tilini o'rganib bo'ladi?

- Yuqorida aytganimdek, masalan, siz ikki yasharligingizda grammatikani o'rganganingiz yo'q, lekin o'z ona tilingizni o'rgandingiz. Albat-ta, grammatikasiz tilni o'rganish mumkin. Tilni o'rganganдан so'ng grammatikani o'ranga-sa bo'ladi. Shuning uchun chet tili o'qituvchilarini avval tilni o'rgatishi kerak. O'quchchi chet tilini o'zlashtirgach, uni qo'llashdagi qoidalar o'rgatilisa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

- Siz o'zbek tilini qanday qilib o'rgandiginiz? Nimalarda qiyaldingiz?

- Men O'zbekistonga ikki marta kelganman. Dastlab 1997-1999-yillarda kelib, Toshkentda va Jizzaxda talabalgara dars berdim. 2004-yilda yana kelib, O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida ikki yil o'zbek tilini o'rganib ketdim. Afq'onistonga borsam, ularning o'zbek



tilidagi shevasi boshqacha ekan. Ular menga o'zbekistonlikdek gapirar ekansiz deyishdi. Keyin ularning ham shevasini o'rgandim. Endi O'zbekistonga kelsam, afg'onistonlikday gapirasiz deyishyapti. Xullas, ikki shevani aralashitrib gapiraman. Bu yerga kelsam, samarcandliklar o'zbek, tojik, rus tillarida bir xil gapirar ekan. Men samarcandliklarga juda havas qildim. Shuningdek, samarcandliklarga fors tilida ga-pirsam, ular meni tushunyapti, lekin men ularni uncha tushunmayapman. Sababi, bu yerda tojik tili aslidan anche o'zgarib ketgan. Shuningdek, o'zbek tiliga ko'p ruscha so'zlar kirib kelgan. Hozircha rus tilini bilmayman.

- Shahrimiz sizga yoqdimi? Kelgusi re-jalarigiz qanday?

- Albatta, juda yoqdi. Shahringizga turmush o'rtog'im bilan kelganman. Bizga turarjoy, hamma sharoitlar yaratib berishdi. Universiteda talabalgarning xalqaro standartlarga mos mutaxassis bo'lib yetishishida o'z hissami qo'shomqochiman, ya'ni ularga ingliz tilidan dars beraman.

- Mazmunli suhbatingiz uchun rahmat, ishlaringizda omad tilayman.

Xurshida ERNAZAROVA
suhbatlashdi.

2023-yil birinchi yarmi yakuni bilan viloyatdagi 356760 nafr maktabgacha yoshdagagi bolalarning 245644afari (68,9 foizi) maktabgacha ta'lif tashkilotlari qamrab olingen.

68,9 FOIZ **BOLA BOG'CHAGA QATNAYAPTI**

Buzungi kunda viloyatda 743 ta davlat bog'chasi, 123 ta davlat-xususiy sherkilik asosidagi, 64 ta nodavlat (xususiy), 2836 ta olibaviy bog'chalar, 1 ta tashkilotga qarashli bog'cha va 1 ta ilk rivojlantirish markazi faoliyat yuritmoqda.

Joriy yilda manzilli dasturlar doirasida Payariq tumani Beshqo'rg'on mahallasiada 60 o'rinni, Naray tumani Yangi hayot mahallasiada 60 o'rinni, Samarqand tumani Do'stlik mahallasida 60 o'rinni, Kattaqo'rg'on tumani Yonboshsov mahallasiada 60 o'rinni, Toyloq tumani Yangi hayot mahallasiada 120 o'rinni, Qo'shrabot tumani Do'stlik mahallasida 90 o'rinni, Toz mahallasiada 60 o'rinni va homiylik mablag'i hisobidan Kattaqo'rg'on tumani Jumaboy mahallasiada 60 o'rinni davlat maktabgacha ta'lif tashkilotlari foydalanishiga topshirildi.

Shuningdek, Toyloq tumani Xo'jayuz mahallasiada 75 o'rinni, Past Darg'on tumani Kamolot mahallasiada 100 o'rinni, Jomboy tumani Naymantepa mahallasiada 150 o'rinni davlat-xususiy sherkilik asosidagi maktabgacha ta'lif tashkilotlari faoliyati yo'lgan qo'yildi.

2022-yil 1-sentabrda boshlab ishga tushgan nodavlat-bogchalar, yangi platformasi orqali tashabbuskor tadbirkorlar bilan 308 ta (12320 o'rinni) olibaviy nodavlat MTTlarni tashkil etish maqsadida Maktabgacha ta'lif agentligi bilan bitim tuzildi.

Tuzilgan bitimlar viloyatning qamrov darajasi past va maktabgacha ta'lif tashkilotlari mavjud bo'lmagan mahallalari hissasiga to'g'ri keladi.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarda oly ma'lumoti pedagog kadrlari sonini oshirish maqsadida bir qator amaliy ishlar re-jalashirildi. Masalan, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti bilan hamkorlikda maktabgacha ta'lif yo'nalishida tahsils olayotgan talabalarning egallagan bilimlarni amaliyotda qo'llashi va ularni bog'chaga ishga joylashitirish orgali 27,6 foiz oly ma'lumoti pedagoglar ulushi 34 foiziga yetkaziladi.

Viloyatda 3-7 yoshli bolalar qamrovini 70,6 foizga yetkazish borasida bir qator rejalar belgilangan. Jumladan, 21 ta davlat, 8 ta davlat-xususiy sherkilik asosidagi va 200 ta olibaviy nodavlat MTTlarni tashkil etish, 28 ta bir yillik bepul majburiy maktabga tayyorlov guruhi oshish va ularga 6 yoshli bolalarni jaib qilish kabi amaliy ishlari bajarishto'zda tashkil etiladi. Shuningdek, davlat investitsiya dasurida 25 ta (4 ta yangi qurilish va 21 ta rekonstruksiya) MTTda qurilish-ta'mirlash hisobiga 1625 o'rinni yangi quvvat tashkil etiladi. Natijada qo'shimcha 9506 nafr bola bog'chaga qamrab olinadi va qamrov darajasi 1,7 foiziga oshiriladi.

Yangidan tashkil etiladigan maktabgacha ta'lif tashkilotlari hisobiga ikki mingdan ortiq yangi ish o'rinni yaratiladi.

Farrux JIYANOV,
viloyat maktabgacha va maktab
ta'limi boshqarmasi shu'ba mudiri.

**Kitobxon
oilaning ikki
farzandi
respublika
tanlovi
g'olib bo'ldi**



Maktab o'quv-chilarining yozgi ta'lilini mazmunli o'tkazish maqsa-dida turli tanlovlardan tashkil etilmoqda.
"Eng iste'dodli kitobxon" on-layn tanlovi ham mana shunday tadbirlardan biri hisoblanadi.

Yaqinda tanlovnning respublika bosqichida Kattaqo'rg'on shahridagi 11-IDUMning 6-sinf o'quvchisi Xushnudbek Abdubabborov 1-o'rinni, 7-sinf o'quvchisi Mohinur Abdubabborova 2-o'rinni qo'iga kiritidi.

- Usbu onlayn tanlova mingdan ortiq o'quvchi qatnashdi, - deydi 11-IDUM direktorining ma'nnaviyat va ma'rifikat ishlari bo'yicha o'rino-sari Saida Elmurodova.

- Tanlovnning ahamiyatlari tomoni shundan, unda beriladigan savollarga o'sha zahoti javob berish kerak. Agar sizdan oldin biror o'quvchi javob berissa, o'sha g'olib sanaladi. Xushnudbek va Mohinur mening farzandlarim. Ular ni bolaligidan kitob o'qishga qiziqitirib kelyapman.

Shu sababli biz oila-miz bilan kitobxonli tanlovida faol qatnashamiz. Masalan, uch yildan beri "Kitobxon oila" tanlovida ishtirot etamiz. Bu yil tanlovnning shahar va viloyat bosqichida birinchiligi o'rinni qo'iga kiritidik. O'zim o'n besh yildan beri maktabda boshlang'ich sinflarga dars beraman. Farzandlarini musiqa to'garaliga ham berganman, ammu orali kitob o'qishga ko'proq qiziqishyapti.

Saida Elmurodova-ning xonardonida mo'jaz-gina kutubxona bo'lib, undan mahalla ahli ham foydalananadi.

O'z muxbirimiz.



samarqandlik sportchilarda 2 ta oltin, 7 ta bronza medal

Joriy yilning 4-avgustidan Belarus poytaxti Minsk shahrida II MDH sport o'yinlari bo'lib o'tmoqda. Unda 9 davlatdan uch mingdan ortiq sportchi 16 ta olimpiya, 5 ta noolimpiya sport turilari bo'yicha bellashmoqda.

Mazkur musobaqada 313 nafr sportchi yurtimiz sharafini himoya qilayapti. Ular orasida viloyatimizdan 41 nafr sportchi 15 ta sport turidan ishtiroy etmoqda. Shu kunga qadar o'tkazilan bahslarda samarcandlik sportchilar 2 ta oltin, 4 ta bronza medalni qo'liga kiritidi.

Jumladan, og'ir atletika bo'yicha 55 kilogramm vazn toifasida kechgan bahsda Og'abek Nafasov dast ko'tarishda 110 va siltab ko'tarishda 130 kilogramm og'irlikdagi toshni ko'tarib, dastlabki oltin medalga ega chiqdi.

Dzyudo bo'yicha o'tkazilan bahslarda 73 kilogramm vazn toifasida Azamat Ablaqulov oltin, 90 kilogramm vaznida Elhur Xolmo'minov, 60 kilogramm vaznda Alijon Aliyev, 81 kilogramm vaznida Abror Nurmanov hamda yunon-rum kurashi bo'yicha 130 kilogramm vazn toifasida Temurbek Nasimov bronza medallarga sazovor bo'ldi. Shuningdek, kamondan otish bo'yicha jamoava bahslarda qizlar ham bronza medalni qo'iga kiritidi.

Musobaqa 14 avgustga qadar davom etadi.

Farzandlarimiz bemehrmi?

Bugun ijtimoiy tarmoqlarda kishilarning hayvonlarni suvgaga tashlab ozor berayotgan, turli xil qynoqlarga solayotgan lavhalari aylanmoqda va bu ko'pchilikning e'tirozlariga sabab bo'limoqda. Ayrim hududlarda qarovsiz itlarning kishilar tinchligiga xavf tug'dirayotganligi to'g'risidagi xabarlarga ham duch kelyapmiz. Insonning do'sti sifatida ulug'langan itlarga yoki har bir oila o'zozlangan mushuklarga nega munosabatimiz keskin o'zgardi.

Maktabda ishlaman. Ikkinci smena darsdan chiqib, uya qaytayotgan edim. Ko'priq yonida bir to'da bolalarning uyoqdan bu yoqqa chopgancha qiyqirib yurganiga ko'zim tushdi. Boshlang'ich sinfda o'qiydigan bir guruh o'g'il bolalar ko'priq ustida turib"

"Hozir chiqadi, hozir chiqadi", deya suvgaga qarab turardi.

- Nima chiqadi? - deb ularga savol berdim.

- Hozir mushukning bolasi chiqadi, suzishni ham bilarikan, - deb javob berdi ular.

Shu payt ko'priq tagidan oqib chiqqan mushuk bolasiaga ko'zim tushdi. Endigina ko'zi ochilgan mushuk bolasi jon holatda qirg'oqqa talmi. U qirg'oqdagi o'tlarga tirmashib, zo'rg'a ariq labiga



chiqib oldi. Shu payt chekkada bolalarga qo'shilmay turgan ikkita bolaning biri chopib kelib, mushuk bolasini kostyumingan orasiga solib, bolalarga:

- Nima qilyapsizlar? Axir bu bolacha-ku, o'lib qoladi-ku?!

- deb yig'lab yubordi.

Ko'priq ustida turgan bolalardan biri esa mushukchaniga

olib qo'yish uchun unga tarmashdi. Bu holni ko'rib, butun vujudim muzlab ketdi.

- Bu mushukcha ham sizlarga o'xshagan yosh bolacha-ku, sizlarni yoki endi emaklagan, endi yurgan ukachalarini suvgaga tashlab yuborsa, yaxshi bo'ladi?

- dedim bolalarga qarab.

O'yinlari qoldim, natohotki bolalarimiz tabiatga, joniyorlarga shunchalik bemehr bo'lib o'sayotgan bo'lsa?

Ularda rahm-shafqat, mehr-muhabbat tuyg'usi yo'qmi?

Nazarimda, bizda ham qarovsiz hayvonlarni nazorat qilib, davolaydigan va ularning oziq-ovqatidan xabardor bo'lib turadigan joylar tashkil qilishga ehtiyoj tug'ilmoqda.

**Iskandar RO'ZIYEV,
Ishtixon tumani.**

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2022-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 376 nusxada chop etildi. Buyurtma 430. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

**Navbatchi muharrir:
G.HASANOV.
Navbatchi:
T.SIDDIQOV.
Sahifalovchi:
B.ABDULLAYEV.**

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skanner qiling

Sotuvda
narxi kelishilgan holda

